## ANDIJON VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
*(dastlabki ma'lumotlar)*

**Jami chakana savdo tovar aylanmasi – 2002,3 mlrd. so'm**







| Yirik korxonalar | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | Uyushmagan savdo |
|---|---|---|
| • 219,8 mlrd. so'm<br>• 89,8 % | • 1782,5 mlrd. so'm<br>• 107,5 % | • 197,5 mlrd. so'm<br>• 101,8 % |

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2002,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 105,2 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 219,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 89,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1782,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 197,7 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 101,8 % ) tashkil etdi.

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI ULISHI
*(foizda)*



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI-NING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
*(mlrd. so'm, foiz)*

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **2002,3** | **105,2** | **119,9** | **107,5** | **1782,5** | **106,3** |
| Andijon shahar | 704,5 | 104,8 | 179,3 | 111,5 | 525,2 | 107,6 |
| Xonobod shahar | 18,5 | 105,2 | 0,9 | 104,8 | 17,7 | 104,2 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Oltinko'l | 68,8 | 105,2 | 3,8 | 102,8 | 65,0 | 100,8 |
| Andijon | 93,1 | 105,7 | 7,6 | 106,4 | 85,5 | 106,7 |
| Baliqchi | 99,2 | 104,1 | 2,9 | 104,4 | 96,2 | 101,9 |
| Bo'ston | 19,3 | 114,6 | 2,0 | 103,0 | 17,3 | 101,4 |
| Buloqboshi | 46,7 | 106,6 | 1,1 | 106,6 | 45,6 | 107,9 |
| Jalaquduq | 66,3 | 104,7 | 1,1 | 104,7 | 65,1 | 104,4 |
| Izboskan | 83,9 | 104,9 | 0,9 | 105,5 | 82,9 | 105,2 |
| Ulug'nor | 18,1 | 105,2 | 0,0 | 50,5 | 9,0 | 104,5 |
| Qo'rg'ontepa | 141,6 | 106,4 | 0,9 | 102,4 | 68,8 | 105,0 |
| Asaka | 208,2 | 104,1 | 4,8 | 74,1 | 99,3 | 106,4 |
| Marxamat | 69,3 | 105,1 | 0,8 | 104,4 | 31,4 | 103,8 |
| Shaxrixon | 195,4 | 105,3 | 2,6 | 64,9 | 95,0 | 105,9 |
| Paxtaobod | 81,5 | 107,2 | 1,0 | 114,1 | 37,9 | 104,8 |
| Xo'jaobod | 87,8 | 106,5 | 0,5 | 114,2 | 41,6 | 104,0 |

2020-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'ston, Paxtaobod, Buloqboshi, Xo'jaobod va Qo'rgontepa tumanlarida qayd etildi.

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI O'SISH SUR'ATLARI
*(foizda)*



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI
*(hajmi va o‘sish sur’atlari)*




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 90,1 % ni va 218,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,1 % ulushiga to‘g‘ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 754,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,5 % ga o‘sdi. Viloyat bo‘yicha ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,9 % ga teng keldi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI
*(hajmi mlrd. so‘m)*

| | 2019-yil yanvar -fevral | 2020-yil yanvar-fevral |
|---|---|---|
| Yirik korxonalar | 214,3 | 218,8 |
| Kichik biznes va xususiy nadbirkorlik | 1440,2 | 1754,7 |
| Uyushmagan savdo | 171,2 | 197,5 |

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK-NING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI
*(foizda)*




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,8 %), Izboskan (98,9 %), Xo'jaobod (98,8 %), Qo'rg'ontepa (98,7 %) va Jalaquduq (98,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (25,5 %), Bo'ston (10,6 %) va Andijon tumanlarida (8,2 %) kuzatilgan.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI
*(foizda)*



## ANDIJON VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI *(ming so‘m)* VA O‘SISH SUR’ATLARI *(foizda)*

2020-yil yanvar-fevral oylarida holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 646,5 ming so‘m (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 103,1 % ga o‘sdi) va respublikaning barcha hududlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlari o’sish sur’atlari kuzatildi.

| | Hajm, ming so‘m | O‘sish sur’atlari |
|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **646,5** | **103,1** |
| **Andijon shahar** | **1 609,2** | **103,1** |
| **Xonobod shahar** | **440,2** | **103,2** |
| ***tumanlar:*** | | |
| **Oltinko‘l** | **393,8** | **103,2** |
| **Andijon** | **359,6** | **103,4** |
| **Baliqchi** | **502,4** | **102,1** |
| **Bo‘ston** | **272,0** | 112,5 |
| **Buloqboshi** | **332,3** | 104,7 |
| **Jalaquduq** | **361,4** | **103,0** |
| **Izboskan** | **358,4** | **102,8** |
| **Ulug‘nor** | **308,9** | **103,2** |
| **Qo‘rg‘ontepa** | **665,4** | **104,5** |
| **Asaka** | **645,7** | **102,1** |
| **Marxamat** | **406,6** | **103,2** |
| **Shaxrixon** | **663,6** | **103,2** |
| **Paxtaobod** | **429,4** | **105,2** |
| **Xo‘jaobod** | **810,8** | **104,4** |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Andijon shahri (1609,2 ming so‘m), Xo‘jaobod (810,8 ming so‘m) va Shaxrixon (663,6 ming so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

**ANDIJON VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI O‘SISH SUR’ATLARI**
*(foizda)*




2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 % ni tashkil etib, 17,8 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,7 % o‘sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

**HUDUDLAR KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI HAJMI**
*(mlrd. so‘m)*




Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko‘rsatkichi Andijon shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 41,5 %) to‘g‘ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Shaxrixon (11,2 %), Asaka (6,9 %) va Andijon (6,6 %) tumanlarida kuzatildi.

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Yil boshidan viloyat bo‘yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 474,**6 mlrd.** so‘mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **120,6 %** ga o‘sdi.

### Yirik korxonalar

Yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 148,**5 mlrd.** so‘mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **198,6 %** ga o‘sdi.

**31,3 %**

### Kichik korxonalar

Savdo hajmi: **159,1 mlrd.** so‘m
O‘sish sur’ati: **102,2 %**

**33,5 %**

### Mikrofirmalar

Savdo hajmi: **166,9 mlrd.** so‘m
O‘sish sur’ati: **102,4 %**

**35,2 %**

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, %

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, 326,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 102,3 % ga o‘sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 68,7 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslanganda, Andijon shahrida (55,4 %), Baliqchi (99,7 %), Buloqboshi (100,0 %), Izboskan (99,9 %) va Andijon (99,9 %) tumanlarida yuqori bo‘lgan.



**HUDUDDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI** *(mln. so‘m)* **VA O‘TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN O‘SISH SUR’ATLARI** *(foizda)*

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **474576,1** | **120,6** | **148508,4** | **198,6** | **326067,7** | **102,3** |
| **Andijon sh.** | 224 922,4 | 123,9 | 100229,6 | 173,9 | 124692,7 | 100,6 |
| **Xonobod sh.** | 2 898,9 | 114,0 | 114,0 | | 2323,3 | 103,1 |
| ***tumanlar:*** | | | | | | |
| **Oltinko‘l** | 9 711,6 | 101,9 | 275,6 | 46,7 | 9 692,7 | 102,1 |
| **Andijon** | 15 418,7 | 101,8 | 18,9 | 17,5 | 15 409,0 | 102,1 |
| **Baliqchi** | 8 355,1 | 101,3 | 9,7 | 64,5 | 8 327,0 | 101,5 |
| **Bo‘ston** | 4 262,9 | 103,6 | 28,1 | 61,6 | 4 246,0 | 103,9 |
| **Buloqboshi** | 3 380,3 | 103,5 | 16,9 | | 3 380,3 | 103,5 |
| **Jalaquduq** | 3 920,5 | 104,1 | 0,0 | 106,0 | 3 896,8 | 104,1 |
| **Izboskan** | 17 362,4 | 103,0 | 23,7 | 28,5 | 17 340,7 | 103,3 |
| **Ulug‘nor** | 1 886,9 | 104,3 | 21,7 | 126,7 | 1 875,2 | 104,2 |
| **Qo‘rg‘ontepa** | 28 934,8 | 135,8 | 11,7 | 153,4 | 7 821,8 | 103,6 |
| **Asaka** | 126 353,5 | 128,2 | 21 113,0 | | 100 668,9 | 102,1 |
| **Marxamat** | 1 140,1 | 102,6 | 25 684,6 | 49,5 | 1 130,1 | 103,6 |
| **Shahrixon** | 18 272,6 | 90,4 | 10,0 | 33,4 | 17 256,8 | 100,6 |
| **Paxtaobod** | 3 927,0 | 102,5 | 1 015,8 | 188,0 | 3 888,0 | 102,1 |
| **Xo‘jaobod** | 3 828,4 | 248,7 | 39,1 | 25,1 | 3 818,3 | 254,7 |

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o‘sish sur’atlariga ega yirik korxonalar Andijon shahrida (123,9 %), Xo‘jaobod (2,4 m.) va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida (135,0 %) kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida nisbatan yuqori o‘sish sur’ati Paxtaobod tumanida (188,0 %) qayd etildi.

## HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASINING O‘TGAN YILGA NISBATAN O‘ZGARISH SUR’ATLARI, %

Ko‘rsatkichlarni hududlar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Andijon shahar 45,7 %, Asaka 27,4 %, Qo‘rg‘ontepa 5,6 %, Shaxrixon 4,2 % tumanlarida qayd etildi.




Ulgurji tovar aylanmasida 2019-yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Andijon shahrida (123,9 %) Asaka (128,2 %), Qo‘rg‘ontepa (135,8 %) va Xojaobod (2,5 м.) tumanida qayd etildi.

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**

**Tel: (74) 228-30-57**